BUGUNGI ADABIY JARAYONDA DRAMATURGIYA (SHAROF BOSHBEKOV IJODI MISOLIDA)

Davlataliyeva Sevara
O'zMPU Filologiya Fakulteti
O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi 4-kurs talabasi
sevaradavlataliyeva@gmail.com
Nargiza To‘xtayeva
Ilmiy rahbar:
https://doi.org/10.5281/zenodo.20205217

Annotatsiya: Ushbu maqola zamonaviy o'zbek dramaturgiyasining rivojlanish tendensiyalarini, janr xususiyatlarini, badiiy-estetik o'ziga xosliklarini va zamonaviy adabiy jarayondagi o'rnini tadqiq etishga bag'ishlanadi. Asosiy e'tibor mustaqillik davri dramaturgiyasidagi mavzu boyligi, janr xilma-xilligi, hajviy-yumoristik talqin, ijtimoiy tanqid va zamonaviy teatr san'ati bilan uyg'unlashuvga qaratiladi. Maqolada zamonaviy o'zbek dramaturgiyasining yetakchi namoyandalaridan biri Sharof Boshbekov ijodi misolida hajviy komediya, jiddiy komediya va drama janrlarining o'ziga xos xususiyatlari alohida tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: Zamonaviy dramaturgiya, badiiy jarayon, hajviy komediya, jiddiy komediya, ijtimoiy tanqid, teatr san'ati, milliy an'analar, Sharof Boshbekov, "Temir xotin", "Tushov uzgan tulporlar", "Eski shahar gavroshlari".

Аннотация: Данная статья посвящена изучению тенденций развития современной узбекской драматургии, жанровых особенностей, художественно-эстетической специфики и места в современном литературном процессе. Основное внимание уделяется тематическому богатству, жанровому разнообразию, сатирическо-юмористической интерпретации, социальной критике, а также гармонии с современным театральным искусством. В статье отдельно анализируются особенности жанров сатирической комедии, серьезной комедии и драмы на примере творчества одного из ведущих представителей современной узбекской драматургии Шарофа Бошбекова.

Ключевые слова: современная драматургия, художественный процесс, сатирическая комедия, серьезная комедия, социальная критика, театральное искусство, национальные традиции, Шароф Бошбеков, «Железная жена», «Тулпары, сбросившие уздечки», «Гавроши старого города».

Abstract: This article explores the development trends of modern Uzbek dramaturgy, its genre characteristics, artistic and aesthetic specificity, and place in

the modern literary process. The main focus is on thematic richness, genre diversity, satirical-humorous interpretation, social criticism, and harmony with modern theatrical art. The article separately analyzes the peculiarities of satirical comedy, serious comedy, and drama genres on the example of the work of Sharof Boshbekov, one of the leading representatives of modern Uzbek dramaturgy.

Keywords: Modern dramaturgy, artistic process, satirical comedy, serious comedy, social criticism, theatrical art, national traditions, Sharof Boshbekov, "Temir xotin," "Tushov uzgan tulporlar," "Eski shahar gavroshlari."

Zamonaviy o'zbek adabiyotida dramaturgiya alohida o'rin tutadi. Adabiyotning eng qiyin turi hisoblangan dramaturgiya eramizdan avvalgi antik davrda qadimgi Gretsiyada paydo bo'lib, miloddan avvalgi VI asrlarda xalq hajviy tomoshalaridan boshlangan, V asrlarga kelib esa ilk yunon dramalari, keyinroq tragediya va komediyalar shakllangan. Bu buyuk an'analar o'zbek milliy dramaturgiyasining shakllanishiga ham ta'sir ko'rsatgan. O'zbek dramaturgiyasining yozma asarlari XX asr boshlarida paydo bo'ldi. 1911-yilda Behbudiyning "Padarkush yoki o'qimagan bolaning holi" asari ilk dramatik asar sifatida tan olingan. Shundan so'ng "To'y" (Nusratulla Qudratulla va Hoji Mu'in), "Boy ila xizmatkor", "Ko'knor", "Mazluma xotin" (Hoji Mu'in), "Juvonmarg", "Ahmoq" (Abdulla Badriy), "Baxtsiz kuyov" (Abdulla Qodiriy), "Zaharli hayot", "Ilm hidoyati" (Hamza), "Pinak", "Advokatlik osonmi?" (Avloniy) kabi asarlar yaratildi. Bu asarlar drama janri imkoniyatlarini o'zida to'la ifodaladi. Mustaqillikdan so'ng o'zbek dramaturgiyasi yangi bosqichga ko'tarildi. Milliy qadriyatlarga, ona tiliga, Vatanni sevish, inson psixologiyasiga chuqur murojaat qilishga bo'lgan e'tibor kuchayishi natijasida zamonaviy drama jiddiy rivojlanishga erishdi. Dramaturgiya va rejissurada katta o'zgarishlar sodir bo'ldi. Yaratilgan tarixiy va zamonaviy mavzulardagi asarlarda insonni ulug'lash, Vatanga mehir va sadoqat, qadriyatlarimizga hurmat g'oyalari badiiy g'oyalarda o'z aksini topdi.

Tadqiqotning dolzarbligi shundaki, zamonaviy adabiyotshunoslikda dramaturgiya umumiy jihatdan o'rganilgan bo'lsa-da, aynan bugungi adabiy jarayondagi dramaturgiyaning o'ziga xosligi, uning badiiy-estetik xususiyatlari, zamonaviy teatr san'ati bilan uyg'unlashuviga alohida e'tibor qaratilmagan. Ushbu maqola mazkur bo'shliqni to'ldirishga qaratilgan. Mustaqillikning ikkinchi o'n yilligi orasida dramaturgiyamiz tez rivojlana boshladi. So'ngi yillar dramaturgiyasi shakl va mazmun tomondan yangilandi, janr imkoniyatlari kengaydi. San'atkorlar jahon dramaturgiyasining barhayot tajribalaridan unumli foydalana boshladilar. Bu yillar an'analarga ko'ra ko'plab she'riy dramalar dunyoga keldi. E.Vohidovning "Istanbul fojiasi", A.Oripovning "Sohibqiron", U.Qo'chqorning "Rasulullo kotibi", R.Bobojonning "Yusuf va Zulayho" kabi asarlar ana shu usulda bitilgan.

Dramaturgiyaning rivojlanishi va yangilanishi mavzu ko'lamining kengayishida yaqqol ko'rinadi. Bu borada ayniqsa tarixiy mavzudagi sahna asarlarning ko'payganligini alohida ta'kidlash lozim.

Tarixga munosabatning o'zgarganligi, buyuk ajdodlarimizning badiiy, ilmiy va ma'naviy-ma'rifiy merosini qadrlash, tarixiy manbalarni o'rganish tufayli xalqimiz o'zligini anglash jarayonini boshidan kechirdi. Ayniqsa Amir Temur, Ahmad al-Farg'oniy, Mashrab singari murakkab tarixiy shaxslar haqida rang-barang janrlarda turli shakllardagi sahna asarlari dunyoga keldi. Bular orasida O'zbekiston xalq yozuvchisi Odil Yoqubovning "Fotihi Muzaffar yoxud bir parivash qissasi" nomli tarixiy dramasi muhim o'rin tutadi. Shuni alohida ta'kidlash o'rinliki, O.Yoqubov dramaturgiya borasida xiyla tajribali adib. 60-yillardayoq "Aytsam tilim kuyadi, aytmasam dilim", "Yurak yonmog'i kerak", "Chin muhabbat", "Olma gullaganda", "Bir koshona sirlari" deb atalgan dramalari bilan shuhrat qozongan edi. Mana shu tajriba va mahorat san'atkorning so'ngi dramasida o'zining yaxshi samarasini bergan. Bu davrida zamonaviy mavzularda ham ko'plab dramalar dunyoga keldi. Bu borada Erkin Xushvaqtov, Salohiddin Sirojiddinov, Usmon Azim, Sanjarali Imomov, Xoliq Xursandov, Nasrullo Qobil, Komil Avaz Toir Yunusovlar samarali ijod qildilar. Ulardan ba'zilarining asarlari teatrlarning doimiy repertuariga aylandi va tomoshabinlarning tashnaligini qondirib, teatrlarga qiziqishini orttirdi.

Bugungi o'zbek dramaturgiyasining o'ziga xos tamoyillari va janr xususiyatlari bir necha jihatlar bilan namoyon bo'ladi:

Tragediya va komediya janrlarining rivojlanishi. Zamonaviy dramaturgiyada tragediya va komediya janrlari yangicha talqin etilmoqda. Tragediyada insonning ruhiy kolliziyasi, hayot-mamot kurashi ifodalanadi. Komediyada esa jamiyatdagi illatlarga qarshi kurash, hazil-hazul va kinoya orqali ijtimoiy tanqid amalga oshiriladi.

Drama janrining kengayishi. Drama janri sifatida ziddiyatli hayotni ifodalash imkoniyatlari kengaymoqda. Zamonaviy dramada insonning ichki dunyosi, ruhiy kezishmalar chuqur tadqiq etiladi.

Melodrama va tragikomediya. Zamonaviy mavzular ko'proq melodrama, komediya, tragikomediya janrlari doirasida ishlanmoqda. Ayniqsa, maishiy-axloqiy komediyalar teatrlar repertuaridan keng o'rin egallamoqda.

Hajviy komediya. Hajviy komediya janrida jamiyatdagi salbiy xislatlar, bema'niliklar, mansabdorlarning o'z mansablaridan suiiste'mol qilishi kabi muammolar keskin tanqid ostiga olinmoqda.

Jiddiy komediya. Jiddiy komediya janrida ijtimoiy-falsafiy muammolar, insonning ichki dunyosi, uning jamiyat bilan munosabatlari dramatik tarzda tasvirlanmoqda.

O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi, "Mehnat shuhrati" ordeni sohibi, taniqli dramaturg va ssenarist Sharof Boshbekov 1951-yil 4-yanvarda Samarqand viloyati Bulung'ur tumani G'ubir qishlog'ida tug'ilgan. 1974-yilda Toshkent teatr va rassomchilik san'ati institutini tamomlagan. O'qishni tugatgach, Muqimiy nomidagi davlat musiqali teatri, Sirdaryo viloyati musiqali drama teatrida faoliyat ko'rsatgan. Shundan so'ng O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi (1983-1985), O'zbekiston Milliy davlat akademik drama teatrida (1986-1987) adabiy xodim bo'lib xizmat qildi. Sharof Boshbekov yozuvchilik ijodini 1980-yilda "Taqdir eshigi" nomli komediya bilan boshlagan. Shundan so'ng adibning birin-ketin yozilgan "G varianti" (1981), "G'urur" (1982), "Jumboq" (1986) hikoyalari, "Tikansiz tipratikanlar", "Musiqa sayyorasi", "Tentak farishtalar", "Tushov uzgan tulporlar" (1983) dramasi, "Eshik qoqqan kim?" (1987), "Eski shahar gavroshlari" (1998), "Temir xotin" (1989) kabi jiddiy komediyalari o'zbek dramaturgiyasi xazinasini boyitdi.

"Temir xotin" komediyasi nafaqat respublikamiz, balki boshqa mamlakatlar teatrlarida ham sahnaga qo'yildi. Mazkur asar avval Respublika miqyosida o'tkazilgan teatr festivalida bosh sovrin – "Gran-pri"ni qo'lga kiritdi, so'ngra Markaziy Osiyo mamlakatlari orasida o'tkazilgan teatr festivalining mutlaq g'olibi deb topildi. Ushbu pyesa asosida badiiy film, operetta ishlandi. Asar 1989-yilda O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasining Maqsud Shayxzoda nomidagi yillik mukofotiga loyiq topildi. 1990-yilda esa unga Hamza nomidagi Respublika Davlat mukofoti berildi. Sharof Boshbekov ssenariysi asosida "Ma'ruf va Sharif", "Yuzsiz" (1993), "Tilla bola" (1994) kabi filmlar yaratildi. U "Masxaraboz" (1996), "Farhod va Shirin" filmlarida ham ssenariy muallifi, ham rejissyor sifatida ishtirok etdi. Uning ssenariysi asosida "Charxpalak" teleseriali suratga olingan. Bundan tashqari, "Tentak farishtalar" (1995), "Zo'rdan zo'r chiqsa" (1996) kabi sahna asarlari ham respublika teatrlarida muvaffaqiyatli namoyish etildi. Hajviy hikoyalari "O'zbekiston adabiyoti va san'ati" gazetasining "Yilning eng yaxshi hajviy asari" (1982) mukofotiga munosib ko'rilgan. "Mushtum" jurnalida e'lon qilingan "Buyuk maqtanchoqlik", "Buyuk qo'rqoqlik", "Buyuk baxtiyorlik" nomli publitsistik maqolalariga jurnalning "Yilning eng yaxshi publitsistik asari" (1992) mukofoti berilgan. Mustaqillik yillari "O'yin" (2002), "Doka ro'molning qurishi" (2004) telefilm ssenariylarini yozdi, "So'qmoq" (2003), "Mehr va mauzer" (2007) kinoqissalarini yaratdi. "Falakning gardishi" (2009), "Musofir bo'lmaguncha" (2009), "Tentak farishta" (hikoyalar, maqolalar, ssenariy, 2010) majmualari nashrdan chiqdi.

"Temir xotin" komediyasi Sharof Boshbekov ijodining eng yorqin namunalaridan biri hisoblanadi. Bu asar 1989-yilda yozilgan va zamonaviy o'zbek dramaturgiyasining yetakchi namunalaridan biri sifatida tan olingan. Asar jiddiy komediya janrida yozilgan bo'lib, unda fan-texnika rivoji davrida inson ongi,

dunyoqarashi, ruhiyatida sodir bo'layotgan jiddiy o'zgarishlar hajviy yo'sinda umumlashtirib berilgan.

Janr va kompozitsion tuzilma. "Temir xotin" jiddiy komediya janrida yozilgan. Asar kompozitsiyasi an'anaviy drama qoidalariga asoslangan. Ekspozitsiyada qahramonlar, ularning hayoti va muhiti tanishtiriladi. Zavjarada voqealar rivojlanadi, ziddiyatlar kuchayadi. Kulminatsiyada asarning eng yuqori nuqtasi tasvirlanadi. Razvyazkada esa voqealar yechimi, qahramonlarning o'zgarishi ifodalanadi.

Asar bir necha pardadan iborat. Har bir parda o'zining mustaqil mazmuni va dramatizmi bilan ajralib turadi. Asar boshida qahramonlar o'rtasidagi munosabatlar tanishtiriladi, keyin ziddiyatlar kuchayadi, oxirida esa voqealar yechim topadi.

Asar tarbiyaviy ahamiyatga ham ega. U erkaklarni oilaviy mas'uliyatni anglash, ayollarni hurmat qilish, ularning mehnatini qadrlashga undaydi. U ayollarni o'z-o'zini ishga solish, mustaqil bo'lish, o'z huquqlarini himoya qilishga undaydi.

"Tushov uzgan tulporlar" (1983) komediyasi Sharof Boshbekov ijodining boshqa bir yorqin namunasidir. Bu asar hajviy komediya janrida yozilgan bo'lib, unda jamiyatdagi salbiy xislatlar, bema'niliklar keskin tanqid ostiga olinadi. Asar nomi o'zida chuqur ma'no mujassam etadi. "Tushov uzgan tulporlar" — bu o'zlarining chegaralarini, o'zlarining vazifalarini unutgan, o'zlarini beqaror tutgan kishilarning ramzi sifatida tasvirlangan. Bu obrazlar orqali yozuvchi jamiyatdagi beparvolik, o'zini o'ylash, mas'uliyatdan qochish kabi salbiy xislatlarni tanqid ostiga oladi. Asarda hajviy vaziyatlar, hazil-humor, kinoya va ironiya keng qo'llaniladi. Qahramonlar o'rtasidagi suhbatlar, ularning xatti-harakatlari orqali jamiyatdagi salbiy xislatlar ochib beriladi.

"Eski shahar gavroshlari" (1998) komediyasi Sharof Boshbekov ijodining yana bir muhim namunasidir. Bu asar jiddiy komediya janrida yozilgan bo'lib, unda eski shahar hayoti, uning o'ziga xos xususiyatlari, shahar aholisining hayoti tasvirlangan. Asar nomi o'zida chuqur ma'no mujassam etadi. "Eski shahar gavroshlari" — bu eski shahar hayotining, uning an'analari, urf-odatlari, shahar aholisining xatti-harakatlari tasvirlangan. Bu obrazlar orqali yozuvchi eski va yangi, an'anaviy va zamonaviy o'rtasidagi ziddiyatni ifodalaydi. Asarda hajviy vaziyatlar, hazil-humor, kinoya va ironiya keng qo'llaniladi. Qahramonlar o'rtasidagi suhbatlar, ularning xatti-harakatlari orqali eski shahar hayotining o'ziga xos xususiyatlari ochib beriladi.

Sharof Boshbekov asarlarida dialog san'ati alohida o'rin tutadi. Qahramonlar o'rtasidagi suhbatlar orqali ularning xarakteri, dunyoqarashi, qadriyatlari ochib beriladi. Adibning asarlarida til nafaqat muloqot vositasi, balki ruhiyatni ochishning muhim vositasi hamdir. Har bir so'z, har bir ibora qahramon ichki dunyosining aksidir. Yozuvchi o'z asarlarida sodda, tushunarli, ammo ifodali til qo'llagan. U hajviy

til, yumoristik ifodalar, kinoya va ironiya keng qo'llanadi. Bu asarlarning badiiy ta'sirchanligini oshiradi va o'quvchini chuqur o'ylantiradi. Sharof Boshbekov asarlari mamlakatimiz teatrlarida keng sahnalashtirilgan. "Temir xotin" komediyasi nafaqat respublikamiz, balki boshqa mamlakatlar teatrlarida ham sahnaga qo'yildi. Mazkur asar avval Respublika miqyosida o'tkazilgan teatr festivalida bosh sovrin – "Gran-pri"ni qo'lga kiritdi, so'ngra Markaziy Osiyo mamlakatlari orasida o'tkazilgan teatr festivalining mutlaq g'olibi deb topildi.

Asarlari asosida badiiy filmlar, operettalar, telefilmlar yaratildi. "Temir xotin" asari asosida badiiy film (1990) va operetta ishlandi. "Charxpalak" teleseriali o'zbek tomoshabinlari qalbidan joy olgan.

Rejissyorlar asarni o'zicha talqin qilib, yangi sahna yechimlari yaratmoqda. Bu dramaturgiya va teatr san'ati o'rtasidagi uyg'unlikni mustahkamlaydi.

G'oya ustivorligi. Ba'zi asarlarda g'oya ustivorligi seziladi, badiiy qimmat ikkinchi o'rinda qoladi. Bu asarlarning badiiy ta'sirchanligini pasaytiradi.

Taqlidchilik va sayozlik. Ba'zi zamonaviy asarlarda, ayniqsa melodramatik filmlarda taqlidchilik, sayozlik kuzatiladi. Bu asarlar chuqur psixologik tahlildan mahrum bo'ladi.

Muhokamalar va taqrizlarning kamchiligi. "To'g'ri ijtimoiy mavzulardagi asarlar ham kam emas, ularda ham g'oya ustivorligi seziladi. Jamiyat taraqqiyotiga xizmat qiladigan, insonlar ongiga salbiy tasir etadigan voqealarga, hodisalarga qarshi kurash voqeasi ko'rsatilayotgan, tomoshabinga havola etilayotgani yaxshi, ammo muhokamalar ya'ni asarlarga taqrizlar juda kam e'lon qilinayotgani esa afsuski, bugungi kun muammolaridan biriga aylanib qoldi".

Yosh ijodkorlarni qo'llab-quvvatlash. Kelajakda yosh ijodkorlarimiz mohirona qalam tebratishlari uchun hozirdanoq imkon yaratmoq lozim. Har bir tuman markazlarida ijodxonalar tashkil qilinishi, musiqa maktablarida, madaniyat markazlarida yosh qalamkashlar to'garaklari doimiy ravishda faoliyat yuritishi, bu albatta har bir ijodkorni ilhomlantiradi, mehnatga chorlaydi va kun kelib ulardan shoh asarlar chiqishi muqarrar.

Xulosa

Bugungi o'zbek dramaturgiyasi mustaqillikdan oldingi davrga nisbatan mavzuiy jihatdan boyib, janriy jihatdan xilma-xillashdi, inson psixologiyasiga chuqurroq murojaat qila boshladi. Zamonaviy dramaturgiya nafaqat badiiy qimmatga ega, balki jamiyatda milliy ong, ma'naviy-estetik tarbiya, ijtimoiy adolat kabi muhim fazilatlarni shakllantirishda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Sharof Boshbekov ijodi zamonaviy o'zbek dramaturgiyasining rivojlanishiga muhim hissa qo'shgan. Uning asarlari hajviy komediya, jiddiy komediya va drama janrlarining imkoniyatlarini to'la namoyish etadi. "Temir xotin" komediyasi adibning eng yorqin

namunalaridan biri bo'lib, unda fan-texnika rivoji davrida inson ongi, dunyoqarashi, ruhiyatida sodir bo'layotgan jiddiy o'zgarishlar hajviy yo'sinda umumlashtirib berilgan.

Ayniqsa, quyidagi xususiyatlar alohida ta'kidlanishi lozim:

1. Janr xilma-xilligi — hajviy komediya, jiddiy komediya, drama janrlarining rivojlanishi;
2. Hajviy talqin va ijtimoiy tanqidning ustalik bilan qo'llanilishi;
3. Zamonaviy inson ruhiyatining chuqur ifodasi;
4. Gender munosabatlari va oilaviy qadriyatlarning dramatik talqini;
5. Dialog san'ati va tilning psixologik funksiyasi;
6. Zamonaviy teatr san'ati bilan muvaffaqiyatli uyg'unlashuv;
7. Asarlarning kino va televidenie ekranlashtirilishi.

Kelajakda dramaturgiyada zamonaviy texnologiyalar, global muammolar, sun'iy intellekt kabi yangi mavzular ham yoritilishi, asar va ekran talqini (rejissyorlik, dizayn) uyg'unlashuvi kuchaytirilishi lozim. Dramaturgiya doim insonga murojaat qiladi, uning qalb sirlarini ochishga intiladi, insoniy o'zaro munosabatlar mohiyatini anglashga harakat qiladi, bu inson tarixiy yoki zamonaviy bo'lishining ahamiyati yo'q.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Solijonov Y. Hozirgi adabiy jarayon. — T.: "Innovatsiya-Ziyo", 2020.
2. Isokova M. Dramaturg mahorati. — T., 2021.
3. Tashmuxammedova L. Adabiyot tarixi va nazariyasi.
4. To'laxo'jayova M., Qozoqboev T. Drama nazariyasi. — T.: Fan va texnologiyalar markazi, 2014.
5. Abdusamatov H. Drama nazariyasi. — T.: G'.G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 2000.
6. Tursunov T. Sahna va zamon. — T.: Yangi asr avlodi, 2007.
7. Ikromov H. Davr va teatr. — T.: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat taxiliy nashriyoti, 2009.
8. Tursunov T. O'zbek teatr tarixi. — T.: Yangi asr avlodi, 2007.
9. Bayandiev T. San'at masalalari — teatrshunos nigohida. — T.: Fan va texnologiyalar markazining bosmaxonasi, 2009.
10. O'zbek adabiyotida dramaturgiya. Oriental Renaissance, 2022, 2 (5).